



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-noyabr oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(67) 236-70-00*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Sirdaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 592,4 mln AQSH dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 195,7 mln AQSH dollariga yoki 24,8 % ga kamaygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **592,4** -**24,8** %

(2023- y.: **788,2**)



Saldo

2024- y.: - **95,5** (2023 y.: - **174,2**)



Eksport

2024- y.: **248,3** -**19,1** %

(2023- y.: **307,0**)



Tovarlar: 244,1



Xizmatlar: 4,2



Import

2024- y.: **344,1** -**28,5** %

(2023- y.: **481,2**)



Tovarlar: 344,1



Xizmatlar: -

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 248,3 mln AQSH dollariga (19,1 % ga kamaydi) va import hajmi 344,1 mln AQSH dollariga (28,5 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 95,8 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Rossiya TSA – 95,0 Eksport: 59,8 Import: 35,2  16,0 %	XXR TSA – 127,0 Eksport: 33,0 Import: 94,0  21,4 %	Afg‘oniston TSA – 102,0 Eksport: 98,0 Import: 4,0  17,2 %	Qozog‘iston TSA – 176,7 Eksport: 22,2 Import: 154,5  29,8 %	Turkiya TSA – 13,4 Eksport: 5,3 Import: 8,1  2,3 %
Ukraina TSA – 3,5 Eksport: 1,5 Import: 2,0  0,6 %	Pokiston TSA – 10,3 Eksport: 7,9 Import: 2,4  1,7 %	Hindiston TSA – 5,6 Eksport: 0,0 Import: 5,6  0,9 %	Tojikiston TSA – 5,5 Eksport: 5,2 Import: 0,3  0,9 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 8,6 Eksport: 3,6 Import: 5,0  1,5 %

amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (16,0 %), XXRda (21,4 %), Afg‘onistonda (17,2 %), Qozog‘istonda (29,8 %), Turkiyada (2,3 %) va Qirg‘iz Respublikasida (1,5 %) qayd etilgan.



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	111,8	120,4	95,0
 Eksport	58,3	55,0	59,8
Import	53,5	65,4	35,2
XXR	117,7	164,7	127,0
 Eksport	43,3	46,8	33,0
Import	74,4	117,9	94,0
Germaniya	8,6	4,1	5,1
 Eksport	1,2	0,2	0,7
Import	7,4	3,9	4,4
Qozog'iston	215,0	211,0	176,7
 Eksport	22,7	21,2	22,2
Import	192,3	189,8	154,5
Turkiya	31,8	35,0	13,4
 Eksport	18,1	14,7	5,3
Import	13,7	20,3	8,1
Ukraina	7,3	1,1	3,5
 Eksport	0,0	0,0	1,5
Import	7,3	1,1	2,0
Latvia	1,9	8,3	1,6
 Eksport	-	0,2	1,3
Import	1,9	8,1	0,3
Fransiya	1,4	2,2	1,9
 Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	1,4	2,2	1,9


Davomi

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Qirg'iz Respublikasi	11,6	10,4	8,6
	<i>Eksport</i>	3,0	3,8	3,6
	<i>Import</i>	8,6	6,6	5,0
	Afg'oniston	109,7	142,3	102,0
	<i>Eksport</i>	108,6	142,0	98,0
	<i>Import</i>	1,1	0,3	4,0
	Belarus	1,6	1,5	2,6
	<i>Eksport</i>	0,6	0,3	1,1
	<i>Import</i>	1,0	1,2	1,5
	Hindiston	1,5	13,8	5,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1,5	13,8	5,6
	BAA	0,3	0,0	0,4
	<i>Eksport</i>	0,3	0,0	0,1
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,3
	Tojikiston	14,7	6,3	5,5
	<i>Eksport</i>	12,7	5,4	5,3
	<i>Import</i>	2,0	0,9	0,2
	Eron	5,3	4,7	2,6
	<i>Eksport</i>	2,0	3,5	1,5
	<i>Import</i>	3,3	1,2	1,1
	Pokiston	0,0	0,2	10,3
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	7,9
	<i>Import</i>	0,0	0,1	2,4
	Italiya	45,1	5,1	1,0
	<i>Eksport</i>	0,5	0,0	0,0
	<i>Import</i>	44,6	5,1	1,0
	Polsha	1,8	2,0	1,2
	<i>Eksport</i>	0,9	1,0	0,2
	<i>Import</i>	0,9	1,0	1,0



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)*



ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 34,7 % ulush bilan 205,9 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,5 % ulush bilan 3,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,5 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 31,5 % ga kamayib jami TSA'dagi ulushi 50,6 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, 292,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport 93,8 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 199,1 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 95,0
Eksport – 59,8
Import – 35,2



Qozog'iston

TSA – 176,7
Eksport – 22,2
Import – 154,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 8,6
Eksport – 3,6
Import – 5,0



Belarus

TSA – 2,6
Eksport – 1,1
Import – 1,5



Tojikiston

TSA – 5,5
Eksport – 5,2
Import – 0,3



Ukraina


TSA – 3,5
Eksport – 1,5
Import – 2,0



Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (16,0 %), Qozog'iston (29,8 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi, % da)



Sirdaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 282,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 86,7 mln AQSH dollari, import hajmi esa 196,2 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




SIRDARYO VILOYATINING EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksport hajmi 248,3 mln AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	307,0	248,3	104,7	78,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	168,8	121,5	122,9	72,0	55,0	48,9
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	3,9 m.	68,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,3	10,5	69,3	126,3	2,7	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,8	51,3	28,8 m.	0,0	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,1	7,8	57,1	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	14,1	6,9	86,8	48,7	4,6	2,8
Sanoat tovarlari	86,2	77,2	91,3	89,6	28,1	31,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	5,7	5,0	67,7	87,6	1,9	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	21,7	22,1	98,4	101,8	7,1	8,9
Xizmatlar	1,9	4,2	96,8	2,1 m.	0,6	1,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,3 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (31,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (48,9 %) va turli xil tayyor buyumlar (8,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	88 135,1	63,2
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	128,5	38,6 m.
Sabzavotlar va mevalar	32 882,1	112,2
Boshqa joyda tasniflanmagan oziq-ovqat mahsulotlari va pereparatlar	20,2	69,8
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	59,6	8,4 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 745,4	160,0
Qog'oz massasi va makulatura	1 557,3	59,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 824,5	46,9
Birlamchi shakldagi bo'lmagan plastmassalar	2 862,2	64,6
O'g'itlar (272 guruxiga kiritilgan o'g'itlardan tashqari)	977,9	39,0

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	51 057,9	86,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	10 033,3	89,6
Cho'yan va po'lat	22,0	3,0
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	15 111,2	102,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	90,8	3,2 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	4 650,4	88,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	21 514,1	104,1
Har xil tayyor buyumlar	467,4	84,9
Mebel va uning detallari	78,7	145,6

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga 93,8 mln AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 37,8 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 91,5 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARI BILAN AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya	54 961,9	59 796,4	94,0	108,8	6	5
Turkiya	14 716,8	5 277,6	81,2	35,9	8	14
XXR	46 792,0	33 034,7	108,0	70,6	5	10
Qozog'iston	21 230,0	22 207,0	93,7	104,6	7	6
Afg'oniston	141 975,3	98 025,7	131,2	69,0	2	11
Qirg'iz Respublikasi	3 757,5	3 637,6	123,7	96,8	3	7
Tojikiston	5 429,9	5 258,7	42,7	96,8	11	8
BAA	85,6	109,9	31,3	128,4	14	3
Pokiston	6 243,8	7 856,6	60,2	125,8	9	4
Egipt	279,2	826,8	0,0	2,9 m.	16	2
Eron	3 473,6	1 510,7	171,5	43,5	1	13
Belarus	288,8	1081,7	45,5	3,7 m.	10	1
Polsha	991,7	217,4	114,8	21,9	4	17
Ozərbayjon	269,3	244,4	22,3	90,7	15	9
Turkmaniston	264,8	59,2	31,9	22,4	13	16
Buyuk Britaniya	98,6	64,5	0,0	65,6	17	12
AQSH	75,8	17,4	36,3	23,0	12	15



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 25,4 % bilan 63,1 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,8 % bilan 2,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida 79,1 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,1 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (19,5 %), Pokiston (17,5 %), Qozog'iston (26,0 %), hamda XXR (12,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 32,9 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,2 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 13,3 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, qiymati)

Pomidor 237,9 ming AQSH dollari 262,5 tonna 	Karam 1 060,0 ming AQSH dollari 4 115,6 tonna 	Qovun-tarvuz 2 683,3 ming AQSH dollari 7 773,2 tonna 	Piyozi 5 223,8 ming AQSH dollari 28 893,9 tonna 
Uzum yangi yoki quritilgan 1 532,5 ming AQSH dollari 1 880,6 tonna 	Grek yong'og'i 13,7 ming AQSH dollari 8,9 tonna 	No'xat 5 349,1 ming AQSH dollari 16 254,3 tonna 	Loviya 10 251,6 ming AQSH dollari 7 914,5 tonna 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Tonna	Ming. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Eron	360,0	500,4	1,5
 Pokiston	16 666,1	5 762,4	17,5
 Qozog'iston	27 647,7	8 541,6	26,0
 XXR	5 170,2	4 235,6	12,9
 Afg'oniston	15 306,7	6 413,4	19,5
 Latviya	3 592,3	1 297,1	3,9
 Tojikiston	406,9	179,0	0,5
 Boshqa davlatlar	9 918,6	5 952,6	18,2

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 26,0 %) tashkil qilmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 344,1 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 71,5 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (20,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (38,5 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (16,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 28,5 % ga kamaydi va 344,1 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	481,2	344,1	109,8	71,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	167,5	135,0	89,4	80,6	34,8	39,2
Ichimliklar va tamaki	0,3	3,9	0,0	14,2 m.	0,1	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15,0	8,0	75,2	53,2	3,1	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	36,2	32,4	2,4 m.	89,5	7,5	9,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	8,7	1,7	146,9	20,1	1,8	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	71,7	53,5	96,9	74,6	14,9	15,5
Sanoat tovarlari	28,1	28,4	109,5	101,0	5,8	8,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	135,9	70,2	135,7	51,7	28,2	20,4
Turli xil tayyor buyumlar	13,4	5,8	128,9	43,4	2,8	1,7
Boshqa tovarlar	4,4	5,2	0,0	118,1	1,0	1,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-noyabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	110 087,4	75,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	2 477,1	44,2 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	3 402,6	40,8
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	11 047,1	140,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	788,8	21,4
Probka va yog'och-taxtalar	4 266,6	91,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	395,9	7,0
Ko'mir, koks va briketlar	23 832,1	77,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 749,8	20,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2 054,8	164,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	27 106,9	76,0
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8 903,2	98,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8 299,1	56,2

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	7 898,9	96,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	3 352,1	75,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3 434,4	71,6
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	12 135,1	158,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	821,1	6,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	25 123,7	34,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	18 707,3	45,0
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	4 476,6	80,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 400,2	64,9
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	996,8	43,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 012,3	19,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	300,2	108,9

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-noyabr oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 57,9 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyati 49 ta davlatlar bilan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-noyabr, % da)






SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Germaniya	3 930,8	4 336,4	53,7	110,3	15	9
Rossiya	65 419,6	35 244,2	122,3	53,9	8	15
XXR	117 892,9	93 950,0	158,4	79,7	5	13
Qozog'iston	189 810,2	154 457,2	98,6	81,4	10	11
Turkiya	20 275,6	8 102,4	148,4	39,9	6	16
Koreya Respublikasi	3 160,5	9 611,4	33,4	3,0 m.	18	6
Litva	8 321,0	250,5	2,3 m.	3,0	3	19
Vengiriya	1 408,3	2 156,1	159,7	153,1	4	7
Bolgariya	3 780,1	310,2	56,2	8,2	14	18
Turkmaniston	36,8	143,6	0,9	3,8 m.	20	5
Belarus	1 193,5	1 469,0	9,5 m.	123,0	1	8
Bangladesh	0,0	0,0	126,0	0,0	7	20
Italiya	5 063,6	919,7	11,4	18,2	19	17
Buyuk Britaniya	95,2	586,0	4,0 m.	6,1 m.	2	4
Eron	1 215,8	1 056,8	36,7	86,9	17	12
Polsha	960,0	974,1	106,1	101,5	9	10
AQSH	59,2	919,9	83,8	15,5 m.	11	2
Afg'oniston	317,5	3 964,8	56,5	12,5 m.	13	3
Azərbayjon	20,6	486,6	52,3	23,5 m.	16	1
Qirg'iz Respublikasi	6 650,4	5 000,1	77,7	75,2	12	14



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-noyabr, mln AQSH doll.)



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani 41,5 % bilan 142,8 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shirin shahri 0,3 % bilan 0,9 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunolari hajmi 70,2 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 48,3 % ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 20,4 % ni tashkil qildi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)




2024- yil yanvar-noyabr oylarida mashina va transport asbob-uskunolari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,7 mln AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Sirdaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 41,5 mln AQSH dollari (59,0 %), Hindiston — 4,0 mln AQSH dollari (5,7 %) va Turkiya – 6,1 mln AQSH dollari (8,7 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.




SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 28,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 8,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-noyabr)



Sanoat mahsulotlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) (12,1 mln AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (3,4 mln AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (3,4 mln AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.